



## ILGARI SUDLANGAN SHAXSLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARNING YAKKA TARTIBDAGI PROFILAKTIKASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Adxamov Zafar Akbarovich**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Huquqbuzarliklar  
profilaktikasi faoliyati kafedrasini o'qituvchisi  
(ORCID-0009-0004-0961-3708)  
zafaradxamov886@gmail.uz  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19329572>

Bugungi kunda huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi deganda, odatda, profilaktik mazmunga ega "profilaktika suhbat", "rasmiy ogohlantirish", "huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilish", "ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish", "profilaktik hisobga olish", "majburiy davolanishga yuborish", "ma'muriy nazorat" kabi chora-tadbirlarning o'tkazilishi tushunilmoqda. Biroq ushbu chora-tadbirlarning shunchaki o'tkazilishi huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi ko'zda tutadigan maqsadga erishish imkonini bermaydi. Sababi, O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 28-moddasida "huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi" tushunchasiga berilgan ta'rifda, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining maqsadi ikki yo'nalishga yo'naltirilgan. Ulardan biri, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish qaratilgan faoliyat, *ikkinchisi*, ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Ilmiy adabiyotlarda ham, normativ-huquqiy hujjatlarida ham huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasidan ko'zlangan maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan vazifalar va ularning tizimiga oid nazariy qoidalar va normalar mavjud emas.

Aslini olganda, huquqbuzarliklar ning yakka tartibdagi profilaktikasining aniq belgilangan maqsadi vazifalarning, vazifalar esa chora-tadbirlar tizimining aniq shakllantirilishiga xizmat qiladi. Ularning o'zaro aloqadorligi esa huquqbuzarliklar ning yakka tartibdagi profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlari mazmunini ifodalaydi. Ushbu xususiyatlar, o'z navbatida, huquqbuzarliklar ning yakka tartibdagi profilaktikasining afzalliklarini namoyon etadi.

Vaholanki, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlari uning obyekti, maqsadi, vazifalari, yo'nalishlari, usuli, shakli,





ITALY



ITALY

afzalliklari, chora-tadbirlar tizimi, ularni qo'llash asoslari va tartibi, sub'ektlari va ularning faoliyati mazmunini yoritish asosida oydinlashtiriladi.

Mazkur holat huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining nazariy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Nazariya va amaliyotda huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining maqsadiga oid fikrlar kam uchraydi. Biroq, uning maqsadga oydinlik kiritmasdan turib, vazifalari va chora-tadbirlari haqida aniq to'xtamga kelish mushkul.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib hamda "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini tartibga soluvchi normalar tahliliga asoslanib, yakka tartibdagi profilaktikaning maqsadini quyidagilar bilan ifodalash maqsadga muvofiq:

huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar tomonidan g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash va ularning hisobini yuritish;

bunday turdagi shaxslarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish orqali ularni axloqan tuzatish, ularda ijtimoiy hayotga mos xulq-atvor va turmush tarzini shakllantirish hamda nazorat qilish;

huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli (viktimligi) yuqori bo'lgan shaxslarni huquqbuzarlikning qurboniga aylanish xavfining mavjudligi, xavf tug'dirayotgan huquqbuzarlikning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar, huquqbuzarliklarni sodir etish usuli, shakli va vositalari to'g'risida xabardor qilish, ularni ogohlikka, hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlikni ta'minlash;

yakka tartibdagi profilaktik tadbirlarning ta'sirchanligi va samaradorligini ta'minlash.

**Yuqoridagilarga asoslanib, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining maqsadi** – bu, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar tomonidan g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning hisobini yuritish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish orqali ularni axloqan tuzatish, ularda ijtimoiy hayotga mos xulq-atvor va turmush tarzini shakllantirish hamda nazorat qilish, shuningdek huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli (viktimligi) yuqori bo'lgan shaxslarni huquqbuzarlikning qurboniga aylanish



ITALY



ITALY

xavfining mavjudligi, xavf tug'dirayotgan huquqbuzarlikning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar, huquqbuzarliklarni sodir etish usuli, shakli va vositalari to'g'risida xabardor qilish, ularni ogohlikka, hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlikni ta'minlashdan iborat.

Umuman olganda, profilaktik chora-tadbirlar tizimi va ularning qo'llanilishi tahlilidan kelib chiqib, yakka tartibdagi profilaktika maqsadi doirasini yanada kengaytirish mumkin. Biroq, huquqbuzarliklar, xususan odam savdosi profilaktikasi tushunchasiga ta'rif berishda uning amalga oshirilishini muayyan maqsadlar bilan chegaralab qo'yish maqsadga muvofiq emas.

Ilmiy adabiyotlarda huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining vazifalariga nisbatan uning chora-tadbirlariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Biroq, S.B. Xo'jaqulovning ta'kidlashicha, "muayyan maqsad vazifalarning, vazifalar funksiyalarning, funksiyalar esa chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada chora-tadbirlarni amalga oshirishning huquqiy tartibi ishlab chiqiladi. Mazkur mantiqqa asoslangan holda ishlab chiqilgan har qanday faoliyat o'zining samarali mexanizmiga ega bo'ladi"<sup>1</sup>.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining yuqorida keltirib o'tilgan vazifalardan aksariyatining amaliy ahamiyati olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalari bilan asoslab berilgan.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi *obyekti* bo'yicha ilmiy-nazariy adabiyotlarda ham aniq nazariy-huquqiy yondashuvni uchratish qiyin.

Shu boisdan, O.V. Lixacheva oiladagi zo'ravonlik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini umumiy viktimologik profilaktika va maxsus viktimologik profilaktikaga ajratib tadqiq etgan bo'lsa,<sup>2</sup> K.I. Maslennikov esa jinsiy tajovuzning oldini olish tadbirlarini umumiy, yakka va tezkor profilaktika tadbirlar sifatida ko'rib chiqqan.<sup>3</sup> Bu kabi yondashuvlar esa maxsus profilaktikaning obyekti jinoyat sodir etgan shaxslar doirasi bilan chegaralanib qolmasdan, balki huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarni ham qamrab oladi mazmundagi xulosaning shakllanishiga asos yaratida. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 28-moddasida shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvori to'g'risida, uning huquqbuzarlik

<sup>1</sup> Xo'jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (Ichki ishlar organlari faoliyati misolida). Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2018, – B. 52.

<sup>2</sup> Lixacheva O.V. Латентная жертва насильственных преступлений, совершаемых в сфере семейных отношений. – Tyumen, 2006. – S. 19. // URL: <https://www.dissercat.com/content/latentnaya-zhertva-nasilstvennykh-prestuplenii-sovershaemykh-v-sfere-semeinykh-otnoshenii> (20.05.2021y.da murojaat qilingan).

<sup>3</sup> Maslennikov K.I. Оперативно-розыскные и криминологические проблемы предупреждения насильственных действий сексуального характера: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 1999. // URL: <https://www.dissercat.com/content/operativno-rozysknye-i-kriminologicheskie-problemy-preduprezhdeniya-nasilstvennykh-deistvii> (20.05.2021y.da murojaat qilingan).

sodir etishga moyilligi yoxud u huquqbuzarlik sodir etganligi haqida dalolat beruvchi ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi asos bo'lishi keltirib o'tilgan.

Demak, yakka tartibdagi profilaktikaning obyektini faqat shaxslar bilan chegaralanib qolmasdan, o'z doirasiga huquqbuzarlik sodir etganligi haqida dalolat beruvchi ishonchli ma'lumotlar ham qamrab oladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi obyektini bo'yicha ilmiy adabiyotlar va qonunchilikda tor va keng yondashuvlar mavjud. Bu borada yagona fikrning yo'qligi nazariyada huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi qoidalarning shakllanishiga, amaliyotda esa huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini aniq manzilli tashkil etilishiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Amalga oshirilgan tahlillarga asoslanib, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi obyektini quyidagicha shakllantirish tavsiya etiladi:

- 1) g'ayriijtimoiy xulq-atvoriga ega shaxslar;
- 2) huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar;
- 3) huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar;
- 4) huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli (viktimligi) yuqori bo'lgan shaxslar;
- 5) huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar;
- 6) ijtimoiy himoyaga muhtoj voyaga yetmaganlar.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari maxsus o'rganilmagan. Ayrim turdagi jinoyatlarning profilaktik jihatlari tadqiq etilgan tadqiqot ishlarida yakka tartibdagi profilaktikaga xos ba'zi jihatlari yoritilgan. Biroq, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining ijtimoiy-huquqiy maqomini, aniqrog'i ijtimoiy ahamiyati va zaruratini ochib beradigan xususiyatlarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Ilmiy adabiyotlar va huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotining yuqorida amalga oshirilgan tahlili natijalari asosida huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi belgilar sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

1) yakka tartibdagi profilaktikaning faqat huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tomonidan amalga oshirilishi;

2) huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvori to'g'risida, uning huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi

yoxud u huquqbuzarlik sodir etganligi haqida dalolat beruvchi ishonchli ma'lumotlarning mavjud bo'lganda amalga oshirilishi;

3) huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi tadbirlarining tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan maxsus namunaviy rejaga asosan amalga oshirilishi;

4) huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi tadbirlarining oldindan puxta o'ylab ishlab chiqilganligi, sub'ektlar o'rtasida vazifalarning aniq taqsimlanganligi, yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishi-ning tezkorligi;

5) huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi tadbirlarining qonun hujjatlarida belgilangan tartib va shartlarda ishlab chiqilishi;

6) huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasida profilaktik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarining manzilli yo'naltirilishi, ta'sirchanligi va nisbatan individualligi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi, xususan, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi va uning imkoniyatlari haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lish, ushbu yo'nalishdagi profilaktik ishlarni samarali tashkil etish bevosita huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlari mazmuniga oydinlik kiritish va uning mohiyatini anglab yetish talabini qo'yadi. Shunday ekan, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlar va afzalliklari mazmuni quyidagilarda namoyon bo'ladi:

**birinchisi**, yakka tartibdagi profilaktikaning faqat huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tomonidan amalga oshirilishi.

**ikkinchisi**, Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslarni aniqlashni amalga oshirilishi.

**uchinchisi**, Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlashni amalga oshirilishi.

**to'rtinchisi**, Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlashni amalga oshirilishi.

**beshinchisi**, Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga doir faoliyati.



ITALY



ITALY

**oltinchisi**, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasida profilaktik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarining manzilli yo'naltirilishi, ta'sirchanligi va nisbatan individualligi yoki ixtisoslashganligi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi yuqorida keltirib o'tilgan o'ziga xos xususiyatlarga ega va mazkur xususiyatlarning mohiyatini anglash huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotida profilaktika samaradorligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Chunki, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi profilaktikaning boshqa turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi, biroq uning nazariy va huquqiy asoslari yetarlicha shakllanib ulgurmagan. Shu boisdan, o'ylaymizki, ushbu paragrafda ilgari surilgan taklif va tavsiyalar *birinchidan*, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining mohiyatini ochib berishga; *ikkinchidan*, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining maqsadi, vazifalari, obyekti va sub'ektlariga aniqlik kiritishga; *uchinchidan*, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklarini belgilashga; *to'rtinchidan*, amaliyotda huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini qo'llash samaradorligini ta'minlashga; *beshinchidan*, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi muammolarini tadqiq etish yo'nalishlarini belgilab olishga; *oltinchidan*, huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga xizmat qiladi

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni.
2. Xo'jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (Ichki ishlar organlari faoliyati misolida). Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2018, – B. 52.
3. Lixacheva O.V. Латентная жертва насильственных преступлений, совершаемых в сфере семейных отношений. – Tyumen, 2006. – S. 19. // URL: <https://www.dissercat.com/content/latentnaya-zhertva-nasilstvennykh-prestuplenii-sovershaemykh-v-sfere-semeinykh-otnoshenii> (20.05.2021y.da murojaat qilingan).
4. Maslennikov K.I. Оперативно-розыскные и криминологические проблемы предупреждения насильственных действий сексуального характера: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М., 1999. // URL: <https://www.dissercat.com/content/operativno-rozysknye-i>



# SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



kriminologicheskie-problemy-preduprezhdeniya-nasilstvennykh-deistvii-  
(20.05.2021y.da murojaat qilingan).

